

60840200-Veterinariya farmatsevtikasi bakalavriat ta'lim yo'nalishining fanlar kesimida kasbiy kompetensiyalari
JADVALI

Fanning malakaviy kodi	Fanning nomi	Fan yordamida egallanadigan zaruriy kasbiy kompetensiyalar	Kurslar kesimida fanning o'quv jarayonidagi o'rni			
			I	II	III	IV
Majburiy fanlar						
SAKT1104	Sohada axborot kommunikatsiya texnologiyalari	Axborot texnologiyalari va matematik modellashtirish jarayonlarini bilishi va undan foydallana olishi, ularni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, boshqaruv ma'lumotlarni tahlil etish va boshqaruv qarorlarini qabul qila olish malakalariga ega bo'lishi kerak.	•			
AFK1105	Analitik va fizkolloid kimyo	Analitik va fizkolloid kimyoviy jarayonlarini bilishi va ulardan foydallana olishi, ularni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, sohaga oid ma'lumotlarni tahlil etish va qaror qabul qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.	•			
BK1204	Biologik kimyo	Organizmda kechadigan biokimyoviy jarayonlarini bilishi va ulardan foydallana olishi, ularni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, sohaga oid ma'lumotlarni tahlil etish va qaror qabul qilish malakalariga ega bo'lishi kerak.	•			
O'EYT1205	O'zbekistonning eng yangi tarixi	Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida yuz bergan muhim o'zgarishlar, tub islohotlarning mazmun-mohiyatini ko'rsatish va jamiyat hayotida talabning o'rnini, o'zligini anlatishdan iborat.	•			
F1305	Falsafa	Falsafa fani barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'tilishi belgilangan bo'lib, o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, unga munosabat bildirishni shakllantiradi hamda analitik, sintetik, kreativ tafakkurni hosil qiladi. Shuning uchun falsafa fani yosh mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish hamda ularda o'z-o'zini anglash va to'g'ri fikrlash mahorati, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.	•			
O'RT1104	O'zbek (rus) tili	Nofilologik yo'nalishlarda rus tilini o'rgatishdan asosiy maqsad – kelgusi mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida rus tilidan erkin foydalanuvchi mutaxassislarni tayyorlash. Talabalarning nutq (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik),	•			

		o'zlashtirish, hayvon gavdasini veterinariya sud ekspertizasidan o'tkazish va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.				
VF1508	Veterinariya farmakologiyasi	Dorilarni hayvonlar organizmida tarqalishi, farmakodinamikasi, dozasi, dorilarni qo'llashdagi ta'siriga tanqidiy baho berish, nafas olish, ko'payish organlari, oshqozon-ichak tizimi, ichki sekresiya, immun, siydik ajratish, teri yuzasiga, yurak-qon tomir tizimiga, suyak, muskullar hamda nerv tizimlariga ta'sir etuvchi dorivor moddalar, xayvonlarga og'riqqa, yallig'lanishga hamda shishlarga qarshi moddalar, antibiotiklar va boshqa yuqumli, parazitlar va yuqumsiz kasalliklarga qarshi qo'llaniladigan preparatlarni aniqlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.				•
VT1604	Veterinariya toksikologiyasi	Tabiiy, yashash joylari va qishloq xo'jaligi hamda sanoat ishlab chiqarish sharoitlarida uchraydigan, hayvonlar organizmiga zararli toksik ta'sir mexanizmiga ega bo'lgan moddalarni bilishi, toksikantlar ta'siridan yuzaga keladigan zaharlanishlarni davolash va oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga hamda ma'lumotlarni chuqur tahlil qila olish malakasiga ega bo'lish.				•
KD1504	Klinik diagnostika	Klinik tekshirish rejasi va tartibi (klinik ssenariya) hamda laborator analizlari ma'lumotlari tahlili asosida organizmdagi har xil tizimlarda kechayotgan har xil kasalliklar (buzilishlar)ni aniqlash va tashxis qo'yish, kechayotgan patologik jarayonlarga ilmiy baho berish malakasiga ega bo'lish.				•
FB1508	Farmatsevtik biotexnologiya	Dori va yordamchi moddalardagi mutanosiblikni belgilash, dori turlarini tayyorlashning nazari asoslarini va amaliy usullarini qo'llash, dorila tayyorlashni hamda ularning sifatini tekshirish, dori turlari tarkibini bilish va ularni tayyorlash, dori moddalarining nomutanosibligin hisobga olgan holda dori turlarini tayyorlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.				•
F1508	Farmakognoziya	Preparatlar yaratish uchun zarur bo'lgan biologik faol moddalar va dori turlari tayyorlash manbayi sifatida dorivor o'simliklarni o'rganish, ularning kimyoviy tarkibini tekshirish. Dorivor mahsulotni yig'ish, quritish, saqlash va transportda jo'natish tadbirlarini ishlab chiqish ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.				•
FITEBIQ 1506	Farmatsevtika ishini tashkil	O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish				•

	etish, boshqarish, iqtisodi va qonunchiligi	<p>davlat qo'mitasining tashkiliy tuzilishi uni boshqarish, veterinariya ishini tashkil etish va veterinariya qinunchiligi. Veterinariya farmasevtikasi korxonalarida mehnat faoliyatini tashkil etish, veterinariya farmasevtikasi savdo korxonalari va omborxonalarda dori vositalarni qabul qilish, sifatini baholash, saqlash, qadoqlash va tarqatish masalalari va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p> <p>Bozor iqtisodiyoti sharoitida dorixonalarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini me'yorlovchi asosiy iqtisodiy qonunlar, farmatsevtika bozorida iste'molchilarning o'rni, dori vositalariga narx belgilash asoslari, dorixona savdo hajmi va dori vositalarini tayyorlash ishlarini tahlili, sarflar, foydaning tahlili va dorixona muassasalari istiqbolini belgilash malakasiga ega bo'lish.</p> <p>Hayvonlarda uchraydigan xirurgik kasalliklarning etiopatogenezi, tashxisi, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini bajarish, xirurgik operatsiyalarga tayyorgarlik ko'rish hamda uni amalga oshirish ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p> <p>Hayvonlar jinsiy a'zolarining morfo-funksional xususiyatlari, hayvonlarni ko'paytirish biotexnikasi, bo'g'ozlik, tug'ish va tug'ishdan keyingi davr fiziologiyasi va patologiyasi, akusher-ginekologik kasalliklar, yangi tug'ilgan hayvonlar va sut bezlarining kasalliklari, urg'ochi va erkak hayvonlar bepushtliklarni sabablari va kechish xususiyatlarini o'rganish, diagnostikasi, davolash va oldini olish tadbirlarini tashkillashtirish hamda ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p> <p>Dori moddalar va dori ishlab chiqarishda ishlatiladigan yordamchi moddalar, ularning sifati va mutanosibligi, asboblari va anjomlari bilan ishlash, hajm o'ichov asboblarni tasnifi, tavsifi va ishlash qoidalari, dorilarni saqlash sharoitlari va saqlash muddati, laboratoriya va korxonada sharoitida ish joyini tashkil qilish ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p> <p>Veterinariya buyumlari omborlarida farmasevt-tovarshunos ishini tashkil etish, tovarlarni qabul qilishda va saqlashda sifatini nazorat qilish uchun me'yoriy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.</p>				
FBUI1506	Farmatsiyada boshqarish va uning iqtisodi					
KX1606	Klinik xirurgiya					
AG1704	Akusherlik va ginekologiya					
FT1708	Farmatsevtik texnologiya					
VFT1708	Veterinariya farmatsevtikasida tovarshunoslik					

IFML1804	Iqtisodiy farmatsiya, marketing va logistika	Ishlab chiqarish mahsulotni savdosini va yo'nalishini, xizmatlar, sotuvchi vositachilarni ayribooshlash yo'li bilan, alohida shaxslar va mahsulotni ishlab chiqaruvchi korxonalarni maqsadini, farmasevtika bozoridagi ehtiyojni o'rganish va bu ehtiyojni raqobatchilardan ko'ra samarali qondirish usullarini aniqlash malakasiga ega bo'lish						
TK1806	Toksikologik kimyo	Toksikologik kimyo usullari asosida mahsulotlarning sifat va miqdorini aniqlash, kimyo toksikologik tekshirishning ahamiyati, sifat va miqdoriy tahlil usullari ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.						
Tanlov fanlar								
JTS2102	Jismoniy tarbiya va sport	Jismoniy tarbiya va sport, sog'lom turmush tarzi, jismoniy barkamollikka intilish, va o'z-o'zini tarbiyalash, jismoniy mashqlar bilan muntazam ravishda shug'ullanish zaruratini shakllantiradi						
VG2202	Veterinariya genetikasi	Irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini bilish asosida biologik mexanizmlarni ta'minlash. Chatishtirish, duragaylash, urchitish, ontogenez-filogenez, yangi zot yaratish metodlarni bilish va qo'llash.						
O'TSQ2202	O'zbek tilini sohada qo'llanilishi	Nofilogik yo'nalishlarda o'zbek tilining sohada qo'llanilishi fanining asosiy maqsadi -bo'lajak mutaxassis kelgusida ish yuritish va soha terminologiyasi haqida tasavvur va bilimiga ega bo'lishi; hujjatlarni to'g'ri yoza olish va terminlarni o'rinli qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi; ish qog'ozlarini imlo xatolasiz, terminlarni esa o'z o'rnida ishlata olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birgalikda o'z sohasi va kasbiy faoliyatida o'zbek tilining qo'llanilishini muhim jihatlarni ang'lay olishi zarur.						
BR2205	Biofizika va radiobiologiya	Biofizik jarayonlarini, tabiatda uchraydigan radioaktiv izotoplarning manbalari va ularning tirik organizmga biologik ta'sirini, yadroviy nurlanishlar natijasida hayvonlar organizmida paydo bo'ladigan patologik o'zgarishlarni bilish, hayvonlarda nurlanishlar oqibatida kelib chiqadigan kasalliklarni diagnostika qilish va davolashda fizikaviy usullarni to'g'ri qo'llash ko'nikma va malakalariga ega bo'lish.						
EAMM2304	Ekologiya va atrof-muhit muxofazasi	Bo'lajak mutaxassislarga ekologiya va atrof-muhit muxofazasining ekologik va atrof-muhit muxofazasiga oid nazariy asoslarini va amaliy bilimlarni berish, faoliyatiga oid malaka va ko'nikmalarni shakllantirish						
IYK2604	Ichki yuqumsiz kasalliklar	Hayvonlarida uchraydigan ichki yuqumsiz kasalliklarga to'g'ri tashxis qo'yish, ularning sabablarini aniqlash, davolash sxemasi va davolash						

		kursini to'g'ri belgilash, oldini olish chora – tadbirlarini ishlab chiqish va o'tkazish ko'nikmasiga hamda klinik fikr yuritib ma'lumotlarni chuqur tahlil qila olish malakasiga ega bo'lish.					
KFFA2706	Klinik farmatsiya va farmakokinetika asoslari	Dori vositalarni ta'sir mexanizmini, farmakodinamik ta'sirlari va farmakokinetika ko'rsatkichlarini, dori vositalar o'zaro ta'sir natijalarini, dori vositalarni nojo'ya ta'sirlari, ularni oldini olish usullari va farmakokinetika modellari va ko'rsatkichlari, dorilarning ichakdan so'rilishi, organizmda tarqalishi, oqsillar bilan bog'lanishi, dorilarni biotransformatsiyasi va olingan farmakokinetik ma'lumotlarga suyanib, dorilar dozasini aniqlash, kasal hayvonlarga berish tartibi va muddati ko'nikmasiga va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.					•
PIK2705	Parazitologiya va invazion kasalliklar	Organizmlarning o'zaro munosabatlari, parazitizmning kelib chiqishi, tarqalishi, parazitlarning klassifikatsiyasi, parazit xo'jayinlari, ularning morfologiyasi va biologik rivojlanishi, epizootologiyasi, patogenezi, klinik belgilari, patologo-anatomik o'zgarishlari, tashxisi, qiyosiy tashxisi, davolash, oldini olish va qarshi kurash choralarini o'zlashtirish, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini aniqlash ko'nikmasiga va ularning iqtisodiy zararini tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.					•
EYK2705	Epizootologiya va yuqumli kasalliklar	Veterinariya sohasida infeksiyon kasalliklar va epizootik jarayonlarning qonuniyatlari, rivojlanish tendensiyasi, infeksiya qo'zg'atuvchilarning xususiyatlari, infeksiyon kasalliklarning namoyon bo'lishi, rivojlanish bosqichlari, tarqalishi, global tasiri, zoonozlar, epidemiologiya va jamoat sog'lig'ini saqlash, infeksiyon kasalliklarni oldini olish va qarshi kurashish muolajalarini bilish, infeksiyon patologiyani aniqlash ko'nikmasiga va vaziyatni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.					•
VSE2704	Veterinariya sanitariya ekspertizasi	Oziq-ovqat mahsulotlari, chorva mollari, parranda, baliq, asal va o'simliklardan olinadigan oziq-ovqat mahsulotlarni sanitariya jixatdan baxolash, mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasini va uning sanitariya gigiyenik qoidalarini hamda barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini tekshirish usullarini va ularni tahlil qilib baholash malakasiga ega bo'lish.					•